

**XX ASR IKKINCHI YARMIDA QORAQALPOG'ISTON ASSRDA
MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDAGI AHVOL**

Pulatova Guli Islombekovna

Qoraqalpoq Davlat Universiteti

tayanch doktoranti

+998937191401

guliislombekovna@gmail.com

Annotatsiya: *XX asrning ikkinchi yarmida hududdagi maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari, ularning soni, kamchilik va muammolari keltirilgan.*

Аннотация: *Во второй половине XX века представлены учреждения бытового обслуживания региона, их количество, недостатки и проблемы.*

Abstract: *In the second half of the 20th century, domestic service institutions in the region, their number, shortcomings and problems are presented.*

Kalit so'zlar: *maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari, maishiy xizmat artellari, atelye, ta'mirlash ustaxonalari, sartaroshxonalar, tikuvchilik sexi, Nukus maishiy xizmat kombinati*

Ключевые слова: *предприятия бытового обслуживания, артели бытового обслуживания, ателье, ремонтные мастерские, парикмахерские, швейный цех, Нукусский комбинат бытового обслуживания.*

Key words: *household service establishments, household service artels, atelier, repair shops, hairdressers, sewing shop, Nukus household service combine*

Maishiy xizmat, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish — aholiga noishlab chiqarish va ishlab chiqarish xizmati ko'rsatish sohasining bir qismi. Maishiy xizmat kishilarning kasbiy va ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga bog'liq bo'lmagan holda moddiy hamda ma'naviy ehtiyojlarini bevosita qondirish bo'yicha amalga oshiriladigan ijtimoiy-tashkiliy usullar va shakllar bilan tavsiflanadi. Maishiy xizmatga uy-joyni ta'mirlash, yakka buyurtmalar bo'yicha mebellar tayyorlash va ularni

ta'mirlash, kir yuvish, buyumlar va kiyim-kechaklarni kimyoviy tozalash va bo'yash, yakka tartibda poyabzal, kiyim-kechak, mo'ynali va trikotaj buyumlari tikish va ta'mirlash, avtomobillarga texnika xizmati ko'rsatish va ularni ta'mirlash, ro'zg'or texnikasi mashinalari va asboblari, radio va teleappaturalarni, shuningdek, musiqa asboblari ta'mirlash, qimmatbaho narsalarni lombardlarda saqlab berish bo'yicha xizmatlar, fotoxizmatlar, sartaroshlik, madaniy-maishiy va sport buyumlarini ijaraga berish xizmatlari, xonadonlarni yig'ishtirish bilan bog'liq xizmatlar turli topshiriqlarni bajarish va boshqalar bilan shug'ullanadigan korxonalar va tashkilotlar faoliyati kiradi. Bugungi rivojlangan davrda har bir davlatda bu soha o'z rivojining cho'qqisiga chiqqan. Xususan respublikamizda ham 1992-yil aprelda Maishiy xizmat ko'rsatish vazirligi tugatildi va uning negizida aholiga Maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari va tashkilotlari uyushmasi — "O'zmaishiyxizmatuyushma" tuzildi.

Bugungi kunda aholining farovon va qulay sharoitda hayot kechirishlari uchun xizmatlar sohasida bir qator qulayliklar ta'minlab berilmoqda. Natijada mamlakatimizning qishloq joylarida servis infratuzilmasining rivojlanishi evaziga qishloq aholisining yashash tarzi shahar aholisining yashash tarziga yaqinlashmoqda.

Bugungi kun zamon talablaridan kelib chiqib, sohani rivojlantirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2012-2016 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risi"gi hamda "2013-2016 yillarda qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari qabul qilindi[1].

Xizmatlar ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan dasturlar va chora-tadbirlar natijasida sohaning YAIMdagi ulushi sezilarli darajada o'sdi. Ushbu ko'rsatkich 2011 yilda 50,5 % ni tashkil etgan bo'lsa bugungi kunda 54,5% ni tashkil etishi kutilmoqda. Sohada band bo'lganlar bugungi kunda jami band aholining 50% dan ortig'ini tashkil qiladi.

Bugungi kunda faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining 80,4 mingtasini yoki 81%i aynan xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritmoqda. 2020-yilning ma'lumotiga ko'ra, xizmat ko'rsatish sohasi aholi bandligini ta'minlashda eng

katta zaxiralardan biri hisoblanadi. Mamlakatda uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 35 foizni tashkil etadi[2].

20-asr boshlariga qadar ham mintaqamizda aholi yashash sharoitini yengillashtirishga ximat qiladigan tarmoqlar mavjud edi. O'zbekistonda aholiga maishiy xizmat ko'rsatishning o'z an'analari va tarixiga ega bo'lgan tizimi shakllangan edi. Qishloqlarda va shahar mahallalarida sartaroshlar, chevarlar, shuningdek, kosib va hunarmandlar maishiy xizmat ko'rsatish vazifasini bajarganlar. Ustaxonalar va sartaroshxonalar shahar va qishloq bozorlari hududida, mahalla guzarlarida joylashgan edi. 20-asrning 20-yillaridan boshlab davlat tomonidan Maishiy xizmat sohasini rivojlantirishga qaratilgan qarorlar qabul qilindi. Maishiy xizmat artellari tuzildi, yangi atelye, ustaxona, maishiy xizmat uylari, korxonalar ochildi, Maishiy xizmat industriyasi yaratildi. 1965-yilda respublikada Maishiy xizmat ko'rsatish vazirligi tashkil etildi. 1965—1980-yillarda Maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari soni 8382 tadan 18031 ga yetdi (shu jumladan, qishloq joylarida 4403 tadan 11293 taga yetdi). Maishiy xizmat uylari va ixtisoslashtirilgan korxonalar ishga tushirildi, faqat 1971—1975-yillarda 20 ming yangi texnologik asbob-uskunalar o'rnatildi.

Bu davrda Qoraqalpog'iston hududida ham maishiy xizmat ko'rsatish faoliyati bir muncha rivojlanayotgan edi. 1960-yilda bu yerda 291 ta, 1965-yilga kelib esa 366 ta, 1971-yilda 668 ta maishiy xizmat ko'rsatuvchi muassasalar tashkil etildi. Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish hajmi 1965-yilda 2,0 mln.rubl va 1970-yilda 4,1 mln.rubl miqdorida bo'ldi[3]. Biroq bu ko'rsatkichlar hududda maishiy xizmat ko'rsatish tizimining talab darajasidan ya'ni boshqa viloyatlar ko'rsatkichlaridan past ekanini ko'rsatar edi.

XX asrning 60-yillarida Qoraqalpog'istonning 12 ta tumanidan faqat 5 tasida alohida tarzda poyabzallar tikish va ta'mirlash ustaxonasi, 7 ta alohida tarzda kiyimlar tikish va ta'mirlash ustaxonasi, 7 ta metallarni ta'mirlash ustaxonasi, 3 ta fotosuratxona mavjud bo'lsa, birorta tumanda mebellarni va madaniy tovarlarni ta'mirlaydigan ustaxonalar, kiyimlarni kimyoviy tozalaydigan muassasalar bo'lmagan[4]. Biroq keyinchalik bu sohada faoliyat olib brogan muassasalar bir muncha oshgan bo'lsada aholi eholi ehtiyojini qondirish uchun yetarli emas edi. Bu muassasalar ham o'z

faoliyatini talab darajasida olib bormagan, doimiy kamchiliklar mavjud bo'lgan. Jumladan, Nukus maishiy xizmat ko'rsatish kombinatining yakka tartibdagi poyabzal tikish sexida buyurtmalar o'z vaqtida bajarilmasligi holatlari bo'lgan. Masalan, bunday holat "Chimboy" sovxozida, Kegeyli tumanida mavjud bo'lganligi arxiv hujjatlarida ko'rsatilgan.

Shu bilan birga, aholiga maishiy xizmat ko'rsatishni rivojlantirishga malakali hunarmandlarning yetishmasligi ham to'sqinlik qilgan. Shu sabab qishloq joylarda ijtimoiy xizmatlarni tashkil etishda qiyinchiliklar tug'dirgan. Bu holat shahar hududlarida ham kuzatilgan.

Nukus maishiy xizmat ko'rsatish kombinatida 182 nafar usta va boshqa ishchilar, shu jumladan; 10-sonli tikuvchilik sexida – 39 kishi, qalpoq ta'mirlash brigadasida esa – 27 kishi, poyabzal sexida – 16 kishi va 2-sonli tikuvchilik sexida – 14 kishi, 1-sonli sartaroshxonada – 16 kishi, 2-sonli sartaroshxonada - 9 kishi faoliyat yuritgan. Qolgan 54 ta korxonada esa 65 kishi mehnat qilgan. Shulardan 47 ta korxonada bittadan kishi, 4 tasida 2 kishidan, 2 tasida 3 nafardan, 1 tasida 4 nafar kishidan iborat bo'lganligi qayd etilgan[5].

Xulosa o'rnida aytish joizki, maishiy xizmat sohasi xalqlar orasida albatta asrlar davomida shakllanib o'z qolipiga ega bo'lish jaroyonini boshdan kechirgan. O'tgan asr mobaynida mintaqada bu soha davlat miqyosida qamrab olinib bir muncha chora-tadbirlar amalga oshirilgan albatta. Avvaliga hunarmandchilik tarmoqlari aholiga bunday xizmatlarni taklif qilib kelgan holda hunarmandchilik artellari ko'rinishida faoliyat olib borgan bo'lsa, keyinchalik bu soha alohida Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'i sifatida alohida tashkilot tuzildi. Tabiiyki, bu davrda sohaning rivojlanishida ko'plab nuqsonlar mavjud edi. Tarmoqning faoliyatida aholining ehtiyoj darajasi va ishlab chiqarish darajasi muvofiqligi inobatga olinmagan holda faoliyat olib borgan. Shu bilan birga, bu sohaga oid muassasalarda xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan xom-ashyo va sohaga muvofiq binolar yetarlicha ajratilmaganligi ham tarmoqning rivojidagi jiddiy muammolarni tug'dirgan. Boshqaruvning markazlashgan tartibi bu sohaning rivojlanishida ham o'zining salbiy oqibatlarini ko'rsatmay qolmadi. Ammo mustaqillik yillarida yuqorida

ta'kidlaganimizdek sohaga jon kirdi va aholi yashash sharoitida maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlari xalqning kundalik hayotida eng yaqin yordamchisiga aylana oldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston respublikasi davlat dasturlari portal "Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish dasturi ijrosi"
2. Daryo.uz "O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish". 16.06.2020
3. Народное хозяйство Узбекской ССР за 60 лет: Юбилейный статистический сборник. Ташкент. 1984. 282-б
4. Nosirov B. "XX asrning 60-80-yillarida Qoraqalpog'istonda maishiy xizmat ko'rsatish ahvoli xususida" Nukus: "Xabarshi", 2013. 115-b
5. Qaraqalpog'iston Respublikasi markaziy arxivi 322-fond 1-opis 2594-ish 53-b